

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolayeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullayeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullayev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ганиева	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

ABDUQAYUM YO'LDOSHNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

НАВЫК СОЗДАНИЯ ОБРАЗОВ АБДУКАЮМА ЙУЛДОША

SKILL OF CREATING IMAGES OF ABDUKAYUM YULDOSH

¹Teshaboyeva Zumradxon

¹O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abduqayum Yo'ldoshning "Timsohning ko'z yoshlari" qissasidagi asosiy qahramonlar, ularning asardagi funksiyasi, o'zbek adabiyotshunosligida obraz va obrazlilik masalalariga yondashuvlar yuzasidan mulohazalar berilgan. Tahlil jarayonidagi fikrlar nazariy ma'lumotlar bilan asoslangan.

Аннотация

В данной статье представлены главные герои повести Абдукаюма Йулдоша «Тимсохнинг кўз ёшлари», их функции в произведении, а также подходы к образу и образности в узбекском литературоведении. Идеи в процессе анализа основаны на теоретических данных.

Abstract

This article presents the main characters of Abdukayum Yuldosh's novel "Timsohning ko'z yoshlari", their functions in the work, as well as approaches to image and imagery in Uzbek literary criticism. The ideas in the analysis process are based on theoretical data.

Kalit so'zlar: qissa, obraz, personaj, obrazlilik, detal, epizod, umumlashma, mahorat

Ключевые слова: рассказ, образ, персонаж, образность, деталь, эпизод, обобщение, умение.

Key words: story, image, character, imagery, detail, episode, generalization, skill.

KIRISH

Chinakam adabiyot obrazli tafakkur tarzini namoyon etadi. Ijodkorning o'y-fikri uzuq-yuluq shaklda ifoda etilishi yoki biror voqea-hodisani shunchaki hikoya qilish bu badiiy asar degani emas. San'atning tub mohiyati ham olamni obrazlashgan shaklda ifoda etish demakdir. Obrazlilik yoki obrazlar tizimi deganda faqat badiiy asar personajlari tushunilmaydi. Asardagi barcha personajlar, detallar, makon, zamon va voqea obrazlar tizimiga bo'ysunadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov badiiy obraz yaratish jarayoni haqida: "Badiiy obraz yaratish – badiiy ijod qilish obyektiv hamda subyektiv faktorlarning muayyan uyg'unlikda qo'shilishi hamda harakatidan iborat. Obyektiv va subyektiv faktorlar qo'shilishi va dinamikasi tartibsiz kechadigan va muayyan mantiqiy kuch ta'sirizis kechadigan jarayon emas"[1:12], deb yozgan. Adabiyotda ijodkor obrazli tafakkur yordamida fikrlaydi, voqealar rivojini tuzib chiqadi va voqealar tizginini boshqarib turadi. Badiiy obraz mohiyatan san'at va adabiyotning fikrlash shakli bo'lib, "olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi" hisoblanadi.

Badiiy obrazning asosiy xususiyatlari umumlashmaviylik va aniqlik hisoblanadi. Ya'ni, asardagi biror obraz umumlashma sifatida taqdim etilsa ham, o'quvchi tasavvurida aniq bir shaxs gavdalanadi. Bahodir Sarimsoqov obraz mohiyatiga ko'ra, harakatdagi voqelikdan iboratligini ta'kidlaydi: "Obraz – san'atda qayta idrok etilgan voqelik parchasi. Binobarin, voqelikdagi har bir narsa, voqea, ruhiy holat ijodkor ongi, qalb ko'zgisida qaytadan idrok etilar ekan, u ana shularning barchasini o'zagidagi beshta sezgi a'zolari orqali qabul qilib oladi"[1:27]. To'xta Boboyev obrazlilik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Obrazlilik – san'atning asosiy xususiyati, hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli va usuli, uning "tili" va shu bilan birga hayot hodisalari ustidan chiqargan "hukmi". Obrazlilik hodisasining poydevorida badiiy obraz tushunchasi mavjud bo'ladi. Yozuvchining badiiy idroki hayotda insonga xos xususiyatni asarda biror hayvon yoki jonsiz mavjudot orqali ham tasvirlashi mumkin.

TADQIQOT VA NATIJALAR

Asardagi umumiy badiiy g'oyaga xizmat qiluvchi har bir detal yozuvchining diqqat markazida turmog'i kerak. Chunki badiiy asarda har bir detal muayyan funksiyani bajaradi. Badiiy obraz va hayot o'rtasida ulkan jarlik bor deb tushunmaslik kerak. Negaki hayotda ham inson o'zi

duch keladigan biror vaziyat va hodisa tufayli boshqa bir voqelik bilan yuzlashadi. Natijada hayotning o'zida hodisalar zanjiri yuzaga keladi. Badiiy asarda ham turli lavhalar, epizodlar, detallar, obrazlar bir-biriga mantiqan bog'lanib asarning badiiy-estetik g'oyasiga xizmat qiladi. Borliq – ijodkorning asar uchun motiv oladigan ombori. Yozuvchi asarga adabiy xomashyoni hayotdan oladi va bu xomashyo real hayotdan aynan ko'chirilgan bo'lmasligi kerak. Ijodkorga ta'sir qilgan muayyan hayotiy voqea ham obrazlar vositasida badiiy asarga aylanadi. Yozuvchi hayotdan olingan o'sha xomashyoni badiiy idrok etib, uni asarga aylantiradi.

Abduqayum Yo'ldoshning "Timsohning ko'z yoshlari" qissasida asosiy qahramonlar – roviy, Salomat opa, Munisa va posbon yigitdan tashqari tushlar muhim adabiy funksiyani bajaradi. Qolaversa, muallif "timsah" so'ziga ramz yuklagan. Tushlar badiiy adabiyotda muhim motivlardan biri sanaladi. O'zbek xalq ertaklari va dostonlarida, ayniqsa, tush motivlari ko'p uchraydi. Folklorshunos Jabbor Eshonqulov bu haqida shunday yozadi: "O'zbek dostonlaridagi tush motivi sinov, uylanish, safar, qaytish kabi keyingi motivlar bilan chambarchas bog'langan holda keladi"[3:154].

"Timsohning ko'z yoshlari" qissasida ham tush muhim motiv bo'lib kelgan. Hayotda baxti chopmayotgan Munisaning gazeta tahririyatiga ishga kelishiyu unga tush ta'birlariga mukkasidan ketgan Salomat opa duch kelishi, tushlar vositasida Munisaning taqdiriga turli noxushliklarni olib kelishi asarda diqqat qaratish lozim bo'lgan nuqtalar hisoblanadi. Muallif Salomat opaning xarakterini, "ishdan bo'sh vaqtlari – ayonki, bu muddat bir ish kuni davomida eng kamida yetti yarim soatni tashkil etadi – jon-dili bilan beriladigan mashg'uloti munajjimlar bashoratiyu tush ta'birlari edi", deya ta'riflaydi. Asardagi yana bir personaj Kaloniy domla uni "muabbira", ya'ni tush ta'birlovchi ayol deb ataydi.

Salomat opaning hayotini ham to'kis deb bo'lmaydi. Turmushida yetarlicha muammosi bor bu ayol o'zgalarning hayotini ham o'zini kiday ko'rgisi keladi. Yozuvchi Salomat obrazining bu qusurini ochiq-oshkor yozmasa-da, o'quvchi uning xatti-harakatlaridan va turmushi haqida aytib o'tilgan tasvirlardan shunday xulosaga boradi. Uning o'zgalari taqdiriga aralashuvchilik xususiyati tushlar orqali amalga oshadi. Tushlar ichida ham aynan "tushda timsohning ko'z yoshlari"ni ko'rish Salomat opaning eng sevib ta'bir qiladigan tushi hisoblanadi. Bu ibora ijobiy mazmunda emas va unin mohiyati qissada Salomat opaning xatti-harakatlari bilan uyg'un kelishini ko'ramiz.

Eng avvalo, qissa markazida turgan "timsohning ko'z yoshlari" iborasining mazmun-mohiyatini bilib olish lozim. Timsah ovqatlanayotgan paytida ko'zidan yosh keladi. "Timsohning ko'z yoshlari" iborasi ko'chma ma'noda o'z qurboniga rahmi kelayotganini ikkiyuzlamachilik bilan namoyon qilishni, unga riyokorlarcha hammadlik ko'rsatishini anglatadi. Biologik qonuniyatlarga ko'ra, timsohning ko'z ostida bez joylashgan bo'lib, organizmdagi ortiqcha tuzni chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi va chiqayotgan ushbu tuz bir qarashda ko'z yoshini eslatadi. Insonning ko'zi ostida ham shunday bez joylashgan bo'lib, ko'z yoshining sho'r bo'lishi shundan deya talqin etiladi. "Timsohning ko'z yoshlari" iborasi Qadimgi Rimda "Krokodilstranen" deb atalib, lug'aviy ma'nosi "mag'lubiyatga uchragan raqib ustida yig'lash" deganidir. Inglizlarda esa "Crocodile tears" iborasi ishlatiladi. Bu iboraning barcha tillar va ellardagi umumiy ma'nosi soxtalikni, yasamalikni, ikkiyuzlamachilik va munofiqlikni anglatadi.

Jabbor Eshonqulning "O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini" kitobida "hayotda biror-bir oqil, bilimli, turmush tajribasiga ega yaqini yoki el orasida obro'-e'tibor topgan kishidan tush ta'biri so'ralgani, shuningdek, ta'birnomalardan foydalanilgani" qayd etilgan. Bundan ko'rinadiki, tushlar ta'biri bilan shug'ullangan Salomat opaning yuqorida aytilgan xususiyatlardan mosuvligining o'ziy oq adibning qahramon va jamiyatga nisbatan o'ziga xos ironiyasidir. "Tushda shartlilik mavjud. Shartlilik-poetik san'at tabiatiga xos xususiyat. Tushdagi obrazlar ta'biri, ulardan kelib chiquvchi mazmun ham shartlilik asosida yuzaga keladi. Bu esa tushdagi obrazlar poetik san'atlarga uyg'unligini ko'rsatadi. Tushdagi ramz va timsol deb qo'llanilishiga sabab ham, avvalambor, ana shu uyg'unlikka tayanadi. Tushdagi obraz har jihatdan poetik ramz va timsollarga yaqin. Folklor asarlarida tushlar ifoda va asar kompozitsiyasidagi o'rni, vazifasiga ko'ra ham ulkan badiiy vazifa bajaradi"[3:247].

Odatda, xalqimiz ichida tushda ko'z yoshini ko'rish, ikki xil ta'bir qilinadi. Ya'ni, agar ko'z yosh sovuq bo'lsa, xursandlik, issiq bo'lsa, xafalik alomati deb tushuniladi. "Timsohning ko'z yoshlari"ga ta'bir berilgani haqida biror fakt yo'q. Chunki timsah bizning hududlarda yashamaydi. Xalq o'ziga begona bo'lgan hayvon haqida maqol, matal yoki cho'pchak to'qimagan.

A.Yo'ldoshning qissasidagi timsohning ko'z yoshlari iborasini soxta mulozamat, soxta rahm-shafqat deya talqin qilish mumkin. Qissada Salomat opaga xos salbiy chizgilar roviy, ya'ni

hikoyachi tilidan beriladi. Ayol kishiga yarashmaydigan tarzda qorin qo'yib yuborgani uchun "abadiy ikkiqat" yoki "xronik homilador" laqabi berilgani aytiladi. Opa tushlar bilan birga qaysi burj yoki muchalda tug'ilgani bilan ham qiziqadi. Roviyning bir marta tushida muzday ilonni ko'rganini aytgani, Salomat opa esa buni "tuzukkina boylik" deb ta'bir qilgani opaning tushlar bo'yicha ta'birchilik maqomini tasvirlashga, o'quvchini uning shaxsiyati bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Qissada asosiy qahramon maqomidagi Munisa obrazi asarning markazida turadi. Asarda tasvirlanganidek, uning tahririyatga ishga kirganiga hali ko'p bo'lmagan. Hikoyachi muharrirning esa ish tajribasi yuqori, bir emas uchta joyda ishlaydi. Adib Munisani har tomonlama tasvirlaydi. Uning ish borasidagi tajribasiyu husni jamolidan tortib fazilatlarayu ovqat borasida chimxo'rligigacha batafsil tasvirlarni ko'ramiz. Bu tanishtiruv ruhidagi tasvirlar bayon shaklida bo'lib qolmagani muallifning yutug'i. Zero obrazlarni tanishtirish chog'ida yozuvchi ularga hikoyachi-roviyning rakursidan qaraydi va obrazlar haqida ko'proq faktlarni taqdim etadi. Bu faktlar esa badiiy asar tematikasi va matn uslubidan ajralib qolmaydi. Yaxlitlik, taranglik va siqqlik ushbu qissadagi muallif uslubiga xos xususiyatlar hisoblanadi.

Opaning taxminiy hisob-kitoblariga ko'ra 26 yoshga kirgan Munisani baxti ochilmagan. Qissadagi tugun shu epizodda tashlanadi. Yoshi o'tib ketayotgan qizning baxtini topishiga yordam berish reja qilingan. Bo'lim boshlig'i qizning taqdiri yuzasidan turli xil tusmol va "bashorat"larni ilgari suradi. Munisani hayoti shu qadar og'irki, roviy tili bilan aytganda, "ma'lumotlar odamni ruhlantirib yuboradigan darajada emasdi. Axir bundoq nimjon ko'rsatkichlar bilan biron nimaga umid bog'lash mushkul"[5:19].

Turmushining aytgulik jihati yo'qligi o'z yo'liga, Salomat Munisani baxtli bo'lishidan manfaatdorlik his qilayotgani dastlab o'quvchida beg'araz tuyg'ular uyg'otadi. Hikoyachi-roviy bilan suhbatidan keyin bu ishga qattiq bel bog'laydi. Uning Munisaga qo'ygan sharti ham aqlga sig'maydigan darajada ekanini ko'ramiz. Munisa tushida timsohning ko'z yoshlarini ko'rishi kerak. Opaning nazdida baxtli bo'lishning bundan bo'lak chorasi yo'q. Munisa esa tushiga timsohning yig'layotgani tugul, timsohning o'zi ham kirmayotganidan mulzam tortadi. ikki nozik jins vakilining bu xatti-harakatiga boshida befarq munosabatda bo'lgan hikoyachi-roviy bora-bora bu voqeaga aralashib qoladi. Natija esa uzoq kuttirmaydi. "Men besharm quyosh nurlari yupqa ko'ylagi ostidagi qomatini ko'z-ko'zlab turgan qizga bir qarashdayoq hammasini tushundim"[5:23], deya hikoya qiladi roviy bu voqeaning yuz bergani haqida xabar berayotib. Bu kabi tashbehlarga boy tasvirlar asarning badiiyatini yanada oshirganini aytib o'tish lozim. Zero qissaning ruhiyatida poeziyaga yaqinlik seziladi.

Munisani hayotidagi voqelik, uning o'z muhabbatini topishi shunchaki yuz bermaydi. Bu voqea aslida uyushtirilsa ham, bu voqea asarning badiiy maqsadiga xizmat qiladi. "Real voqelik faktlari faqatgina o'ziga xos belgi-xususiyatlari bilan emas, balki ijodkorning estetik idealiga xos atributlar bilan boyitilgan, muayyan darajada o'zgartirilgan, qaytadan idrok etilgan holda aks etgandagina badiiy obraz vujudga keladi"[1:67], deb yozadi adabiyotshunos B.Sarimsoqov. Ijodkorning estetik ideali hikoyachi-roviy obrazida namoyon bo'lgan. U bir qarashda hamma narsaga befarq, faqat turmush tashvishi bilan ovvora, ayollarni ham ko'p xushlayvermaydigan odamday taassurot qoldiradi. Ammo u hikoya qilish barobarida o'zining ichki olamini ham namoyon qilib boradi. U syujetni hikoya qilib berishi bilan birga voqealar chizig'iga munosabatini ham ko'ramiz. Mohiyatan olib qaraganda, "Hikoya qilish" tushunchasi "hikoya yaratish"ning ibtidoiy shaklidir[2:40].

Asar badiiy masalliqqa boy bo'lishi muallifning mahoratini ko'rsatib beradi. Qissada asosiy badiiy masalliq qiziqarli syujet va bir-biriga o'xshamas xarakterlar hisoblansa, janrning asosiy sharti bitta qahramonning taqdiri aks etmog'i lozim.

Abduqayum Yo'ldosh inson ruhiyati tasvirida nozik mutoyiba va kinoyadan unumli foydalanadi. Bu yozuvchi ijodiy uslubiga xos yetakchi xususiyatlardan biri. "Timsohning ko'z yoshlari" qissasida hikoyachi-roviyning ko'z o'ngida yuz berayotgan voqeaga munosabati aynan shu xarakterda deyish mumkin. Boshida beparvolik, keyinchalik Munisaga achinish hissi, bora-bora uni bu uqubat to'ridan qutqarish fikri ongu shuuriga yopishib qoladi. Bir paytlar o'ziga nisbatan qo'pol hazil qilgan sobiq tanishi – posbon yigit Munisa uzoq kutgan baxt bo'lib qissaga kirib keladi. Hikoyachi-roviy bu yigitdan xayr bo'lmasligini ilk epizoddayoq fahmlab yetadi va buni o'quvchiga aytadi. Biroq Munisani azbaroyi yaxshi qiz ekanligi uchun qissaning yakuniga qadar kitobxon yaxshi yakundan umid qiladi.

Asarda turli voqealar, epizodlar bo'lsa-da, ular mantiqan bitta syujet chizig'iga jamlangan. Voqealarning o'zaro mushtarakligi yozuvchining badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qissa yakunida "timsohning ko'z yoshlari" soxta baxt-saodat belgisi ekani oydinlashadi. Munisa qismat qo'lida o'yinchoq bo'ladi. Oxir-oqibat mayib-majruhga aylanib qishlog'iga qaytib ketadi. Hikoyachi-roviiy qizga qanchalik achinsa, o'zining qo'lidan hech narsa kelmagani, unga vaqtida yordam bera olmagan uchun o'zini shunchalik koyiydi. Barcha muammolarning sababchisi bo'lgan muabbira Salomat esa asl qiyofasini ko'rsatadi. Munisaning barcha ishda o'zi aybdor ekanini ta'kidlab, o'zi uchun yangi qurbon axtaradi. Inson fe'lidagi bu qadar tubanlik, razolat va yovuzlikni ko'rib hikoyachi-roviiy hayratda qoladi.

Qahramonlar, aniqrog'i roviy (hikoyachi) o'z hayoti va yashash tarzi, tutumi va atrofidagi muhitga nisbatan noroziligini yengil kinoya bilan bildiradi. "Vaholanki, oynavand qafas ichidagi olmaxon yanglig' tinim bilmayman-hazil gapmi, naq to'rt joyda ishlayman-a! Balki, eski zamonlar bo'lganida, pulga botib qolarmidim?!"[5:4]. Bu "Timsohning ko'z yoshlari" qissasi qahramonining zaharxanda iqrori. U o'zini muttasil tahlil qiladi, voqealar markazida turib, halokat sari ketayotgan qiz qismatini boshqa o'zanga burmoqqa urinadi, ammo bunga kuchi va jur'ati yetmaydi.

XULOSA

"Timsohning ko'z yoshlari" qissasida hayotimizda urchib borayotgan soxtaliklar, munofiqliklarni fosh etiladi. Yozuvchi badiiy obrazlar vositasida o'quvchiga munofiqlikning cheku chegarasi yo'qligi, qanchalik xunuk ko'rinishini eslatmoqchi bo'ladi. Shu o'rinda aytish lozimki, Abduqayum Yo'ldosh asarlarida psixologik tasvirlar bilan birga hayotiy mushohadalarni ham ilova qilib o'tadi. Bu yozuvchining hayotiy xulosalari bo'lib, birda roviy, birda qahramonlar tilidan aytiladi. "Har kimning go'ri boshqa. Birovning hayotiga xo'jayinchilik qilishdan Xudoning o'zi asrasin. Zero, u dunyodayam har kim o'zi uchun o'zi javob beradi. Kimningdir hayotini tuzatish, tahrir qilishga urinish esa mening nazarimda, duppa-durustgina ishlab turgan bosh miyani ombur bilan ochib ko'rishdek gap"[5:39], deya xulosa qiladi qissadagi hikoyachi-roviiy.

Abduqayum Yo'ldoshning aksariyat qissalaridagi voqealar gazeta tahririyatlarida yuz beradi. "Timsohning ko'z yoshlari" qissasida ham aynan gazeta tahririyati tanlanishi, asosiy qahramon – tahrirga usta muharrir ekani ham o'ziga xos ramzga ega deyish mumkin. Hikoyachi-roviiy taqdiri zalolat tomon ketayotgan Munisaga nisbatan kuyunchaklik qilib, unga yordam bermoqchi bo'ldi. Ya'ni uning hayotini tahrir qilmoqchi o'ldi. Biroq Alloh tomonidan berilgan hayotni, qadarga bitilgan qismatni tahrirlash mumkin emas. Bu bandaning qo'lidan kelmaydi. Muallif qissadagi har bir detalgacha diqqat bilan yondashgan. Asardagi yozuvchining obrazli tafakkuri o'quvchini syujet bilan birga har bir obraz tashigan ramzni, ma'noni anglashga undaydi.

Abduqayum Yo'ldosh inson ruhiyati tasvirida nozik mutoyiba va kinoyadan unumli foydalanadi. Bu yozuvchi ijodiy uslubiga xos yetakchi xususiyatlardan biri. "Timsohning ko'z yoshlari" qissasida hikoyachi-roviiyning ko'z o'ngida yuz berayotgan voqeaga munosabati aynan shu xarakterda deyish mumkin. Boshida beparvolik, keyinchalik Munisaga achinish hissi, bora-bora uni bu uqubat to'ridan qutqarish fikri ongu shuuriga yopishib qoladi. Asarda turli voqealar, epizodlar bo'lsa-da, ular mantiqan bitta syujet chizig'iga jamlangan. Voqealarning o'zaro mushtarakligi yozuvchining badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари: рисола / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Ҳ. Аҳмедов. – Тошкент: Bookmany print, 2022, 67-бет.
2. Қўшонов М. Моҳият ва бадиият. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, 40-бет
3. Жаббор Эшонкул. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини /Ж.Эшонкул; Масъул муҳаррир: Т.Мирзаев; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти. - Т.: Фан, 2011. 247-248-бетлар
4. Абдуқайюм Йўлдош. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. Қиссалар. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2003. 19-бет